



HAMROQULOVA Robiyaxon

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti
robiya127@gmail.com*

QUR'ONI KARIMDAGI IBRATLI QISSALAR

ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЕ ИСТОРИИ В СВЯЩЕННОМ КОРАНЕ

TALKING STORIES IN THE HOLY QURAN

Annotatsiya. Mazkur maqola Qur'ondagi takrorlanishlar, Qur'on qissalaridagi takrorlar va ularning o'ziga xos jihatlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan va mavzuga aloqador muallifning bir qancha tahlillarni aks ettirgan. Muallif Qur'on qissalaridagi takrorlanishlarni tahlil qilishda Odam (a.s.), Muso (a.s.) va boshqa payg'ambarlar qissalariga murojaat qilgan. Natijada, o'quvchida ishonchli va ob'ektiv ma'lumotlar shakllanishiga zamin yaratgan.

Kalit so'z va iboralar: Qur'on, qissa, oyat, takrorlanish, Odam (a.s.), Muso (a.s.), Nuh (a.s.), balog'at.

Аннотация. Данная статья содержит информацию о повторях в Коране, повторях в коранических рассказах и их особенностях и отражает ряд аналитических изысканий автора, связанных с темой. При анализе повторов в коранических рассказах автор обращается к рассказам пророков Адама (мир ему), Моисея (мир ему) и других. В результате это создало основу для формирования у учащегося достоверной и объективной информации.

Ключевые слова: Коран, рассказ, аяты, повторение, Адам (мир ему), Муса (мир ему), Нух (мир ему), балагат.

Annotation. This article contains information about repetitions in the Qur'an, repetitions in Qur'anic stories and their specific aspects, and reflects several analyses of the author related to the topic. The author

refers to the stories of prophets Adam (pbuh), Moses (pbuh) and others when analyzing the repetitions in the stories of the Qur'an. As a result, it laid the foundation for the formation of reliable and objective information in the student.

Key words: Quran, story, verse, repetition, Adam (pbuh), Moses (pbuh), Noah (pbuh).

KIRISH

Qur'oni Karimda ba'zan muayyan qissa, oyat yoki so'zning to'liq yoki qisman takrorlanishi ko'zga tashlanadi. Bu holat Qur'on ilmlari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchi va olimlarning ham e'tiborini tortdi. Shuning uchun ham bu holat Qur'on ilmlari sohasida "Takror al-Qur'on", "Takror fi-l-Qur'on" nomi bilan alohida o'rganila boshlangan.

ASOSIY QISM

Qur'on karim oyatlaridagi takrorlanishlar bir qancha ko'rinishga ega. Uni ikki turga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi tur lafzlar va ma'noning aynan takrorlanishi bo'lib, lafziy takrorlanish deb nomlanadi. Ikkinchi tur esa turli lafzlar bilan ma'lum bir ma'noning takrorlanishi bo'lib, ma'naviy takrorlanish deb ataladi [4:6-7]. Qur'on qissalaridagi takror shu turga kiradi. Bir qissa bir necha o'rinlarda keltiriladi [2:231].

Imom Zarkashiy o'zining "Burhon fi ulum al-Qur'on" asarida Qur'on qissalariga alohida to'xtalmagan bo'lsada, Qur'ondagi takrorlanishlarga bag'ishlangan bo'limda qissalarning takrorlanishidagi bir qancha hikmatlarni yozadi. Jumladan, qachonki qissalar takrorlansa, ularga biror narsa ziyoda qilinadi. Bunga Muso (a.s.) bilan sodir bo'lgan voqealarni misol qilish mumkin. Bu balog'at bilan so'zlovchi notiqarning uslublardan biridir. Shuningdek, agar qissalar takror-takror zikr qilinmaganida Muso (a.s.) qissasi bir qavmga, Iso (a.s.) qissasi boshqa qavmga, boshqa qissalar ham shu kabi muayyan qavmga nozil qilingan bo'lar edi. Alloh taolo ularning barchalarini bu ishda sherik bo'lishini iroda qilgan [8:637-638].

Qissa takror keltirilgani bilan, uning bayon etilish uslubida farq kuzatiladi, bir o'rinda boshqasida uchramagan ma'lumotlar bilan hodisaning boshqa taraflari kashf etiladi. Olimlar

orasida odamlar Qur'on qissalarida takrorlanish bor desalarda, aslida har bir takrorlanish sur'atidagi holat voqeani to'ldiradi, yoki boshqa uslubda uni yanada ochib beradi va bu narsa aynan takrorlanishni inkor qiladi degan qarash ham mavjud [3:6]. Qissa takror keltirilgani bilan, uning bayon etilish uslubida farq kuzatiladi, bir o'rinda boshqasida uchramagan ma'lumotlar bilan hodisaning boshqa taraflari kashf etiladi. Yoki balog'at jihatidan bir lafz o'rniga boshqasi qo'llaniladi, so'zlar ketma-ketligi o'zgaradi [6:368-370].

Misol tariqasida, Odam (a.s.) va Iblisning qissasini keltirish mumkin. Baqara surasining 34-oyatida faqat farishtalarga Odam (a.s.)ga sajda qilish buyurilgani, ular sajda qilganlari, Iblis esa bundan bosh tortib, kofirlardan bo'lganining bayoni keladi [1:6]. A'rof surasida esa bu qissa birmuncha keng zikr qilingani ko'zga tashlanadi. Jumladan, yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda Iblisni sajdadan to'sgan narsa uning olovdan, Odam (a.s.)ni esa loydan yaratilganligi ekani, Iblisning sajda qilmagani va kibri sababli jannatdan quvilgani, uning qiyomatgacha insonlarni adashtirish uchun muxlat so'raganligi, odamlarni vasvasa qilishi, unga so'ralgan muxlatning berilganligi, unga ergashgan odamlarning ham jahannamga kiritilishi zikr qilinadi [1:151-152]. Baqara surasining 34-oyatida qisqa bayon etilgan qissa A'rof surasining 11-18 oyatlarida kengroq yoritiladi va qo'shimcha tafsilotlar beriladi.

Shu o'rinda Doktor Mahmud Shayxonning fikrlarini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq: Qur'on qissalari to'lig'icha qaytarilmaydi, balki qissadagi ayrim jihatlar takrorlanadi [9:28]. Ya'ni muayyan qissa boshdan-oyoq qayta-qayta zikr etilavermaydi, balki undagi ma'lum jihatlargina bir qator lug'aviy farqlar bilan boshqa bir o'rinda yana zikr qilinadi.

Alloh taolo, Muhammad ﷺ va Qur'oni karimning turli nomlari mavjud. Har bir ism boshqa bir ism dalolat qilmaydigan ma'noni anglatadi. Bu takrorlanish hisoblanmaydi. O'z navbatida hech kim bu nomlarning ba'zilarini inkor etib, ulardan voz kechishga chaqirmaydi. Qur'on qissalaridagi takror ham shunga o'xshash. Qissalar takror keltirilgani bilan, har biri o'z o'rnida boshqasida uchramagan yangi jihatlarni aks ettiradi.

Keyinchalik, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy kabi ayrim olimlar ham ushbu uslubdan foydalangan.

Imom Buxoriyning "Sahih" to'plamida, agar bir hadis bir necha ma'nolarga dalolat qilsa turli boblarda qayta-qayta keltiriladi. Insonlar Imom Buxoriyning bu ishi uchun unga maqto'v aytganlar va uning takrorlarini ko'p hisoblamaganlar [6:371]. Ya'ni, olimlar Imom Buxoriyni hadislarni takroran keltirgani uchun tanqid etmagan, balki uning ilmiy salohiyatiga yuksak baho berganlar.

Qur'on qissalaridagi takrorlanishlarning hikmatlari sifatida bir qator jihatlarni sanab o'tish mumkin. Jumladan:

— Qissalardagi takrorlanishlar Qur'oni karimning yuksak darajadagi balog'at arab balog'ati namunasi ekanligini ko'rsatadi. Balog'atning uslublaridan biri bu bir ma'noni turli ko'rinishlarda namoyon etishdir. Takrorlanayotgan qissa esa har bir o'rinda boshqasidan farq qiladigan uslubda beriladi [7:129]. Bu holatni Muso (a.s.) va sehrgarlar orasidagi bahsda yaqqol ko'zga tashlanadi. Qur'oni karimda to'rt o'rinda eslatib o'tilgan ushbu munozara har bir o'rinda o'zgacha uslub bilan bayon etiladi.

— Ushbu takrorlanishlar qissaning ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Chunki takror ta'kid va e'tibor belgisidir. Qur'on qissalari qanchalik ko'p takrorlanmasin, ayni bir uslubda qaytarilmaydi, ya'ni bir qissa ikki marta so'zma-so'z bir xil zikr etilmaydi.

— Qissalari Qur'onda uzunlik va qisqalik, mujmallik va mufassallik jihatidan ayni bir uslubni lozim tutmaydi. Qur'onda batafsil bayon etilgan qissalar bor: A'rof surasidagi Muso (a.s.) va Hud surasidagi Nuh (a.s.) qissalari bunga misol bo'ladi. Shuningdek, mujmal berilgan qissalar mavjud. A'rof surasidagi Nuh (a.s.) va Hud surasidagi Muso (a.s.) qissalari kabi.

— Qur'on qissalari ba'zi o'rinlarda qisqa va mujmal bayon etilsada, uni o'qiyotgan shaxs nuqsonni his etmaydi. Balki, Alloh taolo o'sha qisqa qissa orqali boshqa qissalarda zikr qilmagan jihatlarni bayon qiladi. Bunga eng yorqin misol Ankabut surasidagi Nuh (a.s.) qissasidir [5:23]. Ankabut surasida Nuh (a.s.)ning o'z qavmini 950 yil da'vat qilgani keltiriladi va boshqa Nuh (a.s.) ismi zikr etilgan biror o'rinda bu ma'lumot eslab o'tilmaydi.

Alohida ta'kidlash o'rinliki, ba'zi Qur'oni qissalar faqat bir marta zikr etilgan, ba'zilar esa bir martadan ortiq [5:23]. Barcha payg'ambarlarning

qissalarini Qur'onning turli o'rinlarida qayta-qayta zikr qilingan deb bo'lmaydi. Bunga Yusuf (a.s.) qissasi yaqqol namuna bo'ladi. Faqat Yusuf surasida batafsil bayon qilingan. Qur'onda ismi ham qissasi ham mutlaqo zikr etilmagan boshqa ko'plab payg'ambarlar ham mavjud. Shuningdek, payg'ambarlarga aloqador bo'lmagan bir qator qissalarni ham suralarda takror-takror zikr qilinmagan. Masalan, Buruj surasidagi Choh egalari qissasi, Fil surasidagi Fil egalari qissasi, Kahf surasidagi G'or egalari qissasi va boshqalar. Yana bir jihati payg'ambarlar bilan bo'lgan ayrim hodisalar ham faqat bir marta keltirilgan. Masalan, Muso (a.s.) ismi Qur'onda eng ko'p takrorlangan, qissasi nisbatan batafsil, qayta-qayta zikr etilgan bo'lsada, uning Kahf surasidagi solih banda bilan qissasi va Baqara surasidagi qavmi bilan sodir bo'lgan sigir so'yish haqidagi qissasi faqat bir martadan keltirib o'tilgan.

XULOSA

Qur'on qissalarining takrori oyatlarning ma'no va lafzlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bir o'rinda ma'lum maqsadda keltirilgan qissa, ikkinchi o'rinda boshqa maqsadni ifodalaydi va qissaning zikr qilinish uslubi bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, qissalarda boshqa o'rinda keltirilmagan jihatlar yoritiladi. Qissaning qayta-qayta keltirilishi unga e'tiborni tortish va ibrat yuzasidan bo'ladi. Shu tariqa qissalar qancha takrorlanmasin, o'quvchida malollik uyg'otmaydi va Qur'on o'quvchisi har bir takrorlanishdan yangi-yangi ma'nolarni kashf etaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
2. Abdulkarim Xatib. Al-Qisos al-Qur'aniy mantuqihi va mafhumih. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1975.
3. Abdulkarim Ziydan. Al-Mustafad min qisos al-Qur'on. – Bayrut: Muassasa ar-risola, 1998. – J. 1.
4. Ecem Sena Bozkurt. Kur'an'da tekrarların mümin şahsiyetin oluşmasına etkisi. – Ekim: Ankara Haci Bayram Veli Üniversitesi Lisansüstü eğitim enstitüsü, 2023.
5. Fazl Hasan Abbos. Al-Qisos al-Qur'aniy. – Urdun: Dor al-Furqon, 1985.
6. Ibn Aqiyla Makkiy. Az-Ziyada va al-ihsan fi u'lum al-Qur'on. – Sharja: Jamia' ash-Shariqa, 2006. – J. 6.
7. Muhammad Ahmad Ma'bad. Nafahot min ulum al-Qur'on. – Madina: Dor at-toyyiba, 1986.
8. Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Qohira: Dor al-hadis, 2006.
9. Xolid Sulaymon. Ash-shaxsiyat fi al-qisos al-Qur'aniy. – Irbid: Jamia' al-Yarmuk, 1996.